

**PESHLAVHA, REKLAMA VA TIJORIY YOZUVLARNING  
LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

*Eshqulov.S.A*

*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

*eshqulovsunnat804@gmail.com*

*Annotatsiya:* Reklama, peshlavha va tijoriy yozuvlar matnlarini lisoniy jihatdan tahlil qilish orqali ularning ko'p qirrali jihatlarini ochib berish, tilshunoslik rivojidagi o'rnini va jamiyatga bo'lgan ta'sirini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunday matnlarning leksik-semantik strukturasini tahlil qilish, ya'ni matnlarning grammatik tuzilishi, sintaktik shakllanishi va leksik-semantik xususiyatlarini tizimli o'rganish, matnning ta'sirchanligini oshirish uchun samarali lingvistik modellarni ishlab chiqish zarur.

*Kalit so'zlar:* semantika, neologizmlar, konnotativlik, ko'chma ma'no, emotisional-ekspressiv birliklar, psixolingvistik, diskurs.

Bugungi kunda peshlavha, reklama va tijoriy yozuvlarning xalqaro darajada davlat tilida va yuqori saviyada ishlatilishi mamlakatning jahon miqyosida ham obro'sini oshiradi, milliy o'ziga xoslikni targ'ib qiladi. Bunday matnlar tilshunoslikda tilning kommunikativ, uslubiy va madaniy jihatlarlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar ham bunday matnlarda o'z ifodasini topadi. Peshlavha, reklama va tijoriy yozuvlar matnlarini tahlil qilishda leksik-semantik, stilistik, psixolingvistik, diskurs va struktural tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalaniladi. Bu tadqiqot usullari ham amaliy, ham nazariy jihatdan samarali natijalar beradi.

Bunday matnlarning bir qancha leksik xususiyatlari mavjud. Masalan:

- Qisqalik va serma'no so'zlar: Reklama va peshlavhalarda yuqori semantik zichlikka ega qisqa so'zlar qo'llaniladi (masalan: "Tez!", "Chegirma!", "Yangi!")

- Neologizmlar va brendsozlik: Tijoriy yozuvlarda yangi so'zlar yoki modifikatsiyalangan leksik birliklar yaratilib, mahsulot nomi yoki xizmat konsepsiysi bilan bog'lanadi. [1]
- Emotsional-ekspressiv birliklar: "Ajoyib narx!", "Hayratlanarli sifati bilan!", "Ishonchli tanlov!" kabi emotсional bo'yоqli so'zlar keng ishlatiladi.

Shu bilan bir qatorda semantik xususiyatlariga to'xtalsak, bir qancha jihatlatni

ko'rishimiz mumkin :

- Konnotativlik: So'zlar faqat denotativ (to'g'ri) ma'noda emas, balki hissiy, baholovchi ma'nolar bilan yukланади.
- Ma'no ko'chishi (metafora, metonimiya): Reklamalarda ko'pincha metaforik obrazlar orqali mahsulotning sifatlari oshirib ko'rsatiladi. Masalan: "Ko'chma quvvat manbai" (telefon uchun).
- Imperativ semantika: So'zlar orqali xaridor ongiga ta'sir o'tkazuvchi semantik strukturalar tuziladi: "Sotib oling!", "O'ylamang, harakat qiling!" Leksik-semantik vositalar reklama va peshlavhalarning stilistik o'ziga xosligini belgilaydi. [2]

Peshlavha, reklama va tijoriy matnlarning leksik-semantik xususiyatlari ularning auditoriyaga tez va samarali ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. Bu matnlarda so'zlar nafaqat axborot uzatadi, balki inson hissiyotiga ta'sir qiladi, fikr uyg'otadi va hatti-harakatga chorlaydi. Shuning uchun ularning lingvistik jihatdan chuqur tahlili reklama samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Peshlavha, reklama va tijoriy yozuvlarda leksik-semantik vositalar nafaqat kommunikativ samaradorlikni oshiradi, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarni o'zida mujassam etgan kuchli axborot vositasi bo'lib xizmat qiladi. [3] Bu matnlar orqali til — iqtisod, madaniyat va ommaviy ongga bevosita ta'sir qiluvchi vositaga

ayylanadi. Ularning lingvistik jihatdan tahlili zamonaviy tilshunoslikda pragmatika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik va marketologik yondashuvlar bilan bog'liq holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamirova D.Sh. O'zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) dissetatsiyasi Samarqand 2022. B – 163.
2. Chiniqulov N.J. Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot matbaa uyi, 2019. –B. 120
3. Shermatov A.A. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs deyksisining qiyosiy tahliliga doir ayrim mulohazalar // Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularning muammolari. –Toshkent, 2013. – B. 235
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/reklama\\_lingvistikasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/reklama_lingvistikasi).